O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [14]
ISSN 2181-7324(Print)

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 811.1(575.1)

Mehribon G‘APPAROVA,
PhD, o‘qituvchi, Navoiy davlat universiteti, Navoiy, O‘zbekiston
E-mail: mehribongapparova1@gmail.com

PhD Y.Xasanova taqrizi asosida

LITERARY AND TYPOLOGICAL FEATURES OF THE HORROR GENRE AND ITS STUDY IN WORLD LITERARY SCHOLARSHIP

Annotation

The article examines the literary and typological features of the horror genre and the history of its study in world literary scholarship. The relevance of the research is determined by the unresolved question of whether horror is an independent genre or a mode, and by the absence of established terminology for the genre in Uzbek literary studies. Using comparative-typological and historical-poetic methods, the article systematizes aesthetic (E. Burke, A. Radcliffe), psychoanalytic (S. Freud, J. Kristeva), structuralist (T. Todorov), philosophical (N. Carroll) and cognitive-evolutionary (M. Clasen) approaches. Eight typological markers of the genre are identified and tested on N.V. Gogol’s “Viy”, six stages of the genre’s study are distinguished, and Uzbek terminological equivalents are proposed.

Key words: Horror genre, Gothic novel, terror, horror, the uncanny, abjection, monster, chronotope, the fantastic.

ЛИТЕРАТУРНО-ТИПОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЖАНРА УЖАСА И ЕГО ИЗУЧЕНИЕ В МИРОВОМ ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ

Аннотация

В статье рассматриваются литературно-типологические особенности жанра ужаса (horror) и история его изучения в мировом литературоведении. Актуальность исследования обусловлена нерешённостью вопроса о том, является ли ужас самостоятельным жанром или модусом, а также отсутствием устоявшейся терминологии в узбекском литературоведении. На основе сравнительно-типологического и историко-поэтического методов систематизированы эстетический (Э. Бёрк, А. Радклиф), психоаналитический (З. Фрейд, Ю. Кристева), структуралистский (Ц. Тодоров), философский (Н. Кэрролл) и когнитивно-эволюционный (М. Класен) подходы. Выделены восемь типологических признаков жанра, апробированных на повести Н.В. Гоголя «Вий», определены шесть этапов изучения жанра и предложены терминологические эквиваленты на узбекском языке.

Ключевые слова: Жанр ужаса, готический роман, terror, horror, жуткое (unheimlich), абъекция, монстр, хронотоп, фантастическое.

DAHSHAT JANRINING ADABIY-TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI VA UNING JAHON ADABIYOTSHUNOSLIGIDA O‘RGANILISHI

Annotatsiya

Maqolada dahshat (horror) janrining adabiy-tipologik xususiyatlari va uning jahon adabiyotshunosligida o‘rganilish tarixi tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi dahshatning mustaqil janr yoki modus ekanligi haqidagi munozaraning hal etilmaganligi hamda o‘zbek adabiyotshunosligida janrga oid terminologiyaning shakllanmaganligi bilan belgilanadi. Qiyosiy-tipologik va tarixiy-poetik metodlar asosida E. Byork va A. Redkliffning estetik qarashlaridan tortib psixoanalitik (Z. Freyd, Yu. Kristeva), strukturalistik (Ts. Todorov), falsafiy (N. Kerroll) va kognitiv-evolyutsion (M. Klasen) yondashuvlargacha bo‘lgan konsepsiyalar tizimlashtiriladi. Janrning sakkizta tipologik belgisi ajratilib, N.V. Gogolning “Viy” qissasi misolida asoslanadi, uning o‘rganilishidagi oltita bosqich belgilanadi va o‘zbek tilida terminologik muqobillar taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: Dahshat janri, gotik roman, terror, horror, unheimlich, abjeksiya, monstr, xronotop, fantastik.

Kirish. Qo‘rquv insoniyatning eng qadimiy hissiy tajribalaridan biri bo‘lib, mif va ertakdan zamonaviy romangacha bo‘lgan badiiy shakllarda izchil aks etib keladi. G.F. Lavkraft “Adabiyotdagi g‘ayritabiiy dahshat” (1927) essesida qo‘rquvni insoniyatning eng qadimiy va eng kuchli tuyg‘usi, noma’lumlik oldidagi qo‘rquvni esa uning eng kuchli shakli deb hisoblaydi [1].

Dahshatning estetik kategoriya sifatida asoslanishi XVIII asrga borib taqaladi. E. Byork qo‘rquvni ulug‘vorlik (sublime) tuyg‘usining asosiy manbai sifatida talqin qilib, xavf masofadan kuzatilganda zavq bag‘ishlashi mumkinligini ko‘rsatadi [2]. 1764-yilda H. Uolpolning birinchi gotik roman sifatida e’tirof etilgan “Otranto qasri” asari nashr etiladi. Shu tariqa estetik nazariya va badiiy amaliyot deyarli bir vaqtda shakllandi.

Dahshat mustaqil janrmi yoki turli janrlarda namoyon bo‘luvchi modusmi, degan savol hamon munozarali. Terminologik noaniqlik ham mavjud: A. Redkliff ruhni kengaytiruvchi “terror” va ruhni muzlatuvchi “horror”ni farqlagan [3], biroq bu farq o‘zbek tilida qayd etilmagan. So‘nggi yillarda dahshat adabiyoti alohida adabiy tarix obyekti sifatida qayta ko‘rib chiqilmoqda [4].

Tadqiqotning maqsadi – dahshat janrining tipologik xususiyatlarini aniqlash va jahon adabiyotshunosligida uning o‘rganilish bosqichlarini tizimlashtirish. Tadqiqot vazifalari:

asosiy nazariy konsepsiyalarni tahlil qilish;

janrning invariant belgilarini ajratish;

yondashuvlarni qiyoslash;

o‘zbek adabiyotshunosligi uchun terminologik muqobillarni taklif etish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Dahshat janriga oid ilmiy adabiyotlar estetik, yozuvchi-nazariyotchilar, psixoanalitik, strukturalistik, gotika tadqiqotlari hamda falsafiy-kognitiv yo‘nalishlarda shakllangan.

Janr poetikasini dastlab yozuvchilarning o‘zlari sharhlagan. E.A. Po “ta’sir birligi” tamoyilini ilgari surib, asarning barcha unsurlari yagona emotsional ta’sirga bo‘ysundirilishi kerakligini asoslagan [5]. G.F. Lavkraft noma’lumlik qo‘rquvini janrning markaziga qo‘ygan [1]. S. King esa ta’sirni uch darajaga ajratadi: terror, horror va jirkanish (gross-out) [6].

Psixoanalitik yo‘nalishda E. Yench “unheimlich” tushunchasini birinchi bo‘lib psixologik muammo sifatida ko‘targan [7]. Z. Freyd uni qadimdan tanish, ammo bostirilgan narsaning qaytishi bilan izohlaydi [8]. Yu. Kristeva abjeksiyani shaxs, tizim va tartibni buzuvchi hodisa sifatida ta’riflaydi [9].

Strukturalistik va tarixiy-poetik yo‘nalishda Ts. Todorov fantastikani o‘quvchining voqea tabiiy yoki g‘ayritabiiy ekanligi haqidagi ikkilanishi bilan belgilaydi: tabiiy izoh “g‘alati” (étrange), g‘ayritabiiy izoh esa “mo‘jizaviy” (merveilleux) janrni yuzaga keltiradi [10]. M.M. Baxtin xronotop nazariyasi orqali gotik romandagi qasrni o‘tmish zamoni bilan to‘yingan makon sifatida tavsiflaydi [11]. R. Jekson fantastikani ijtimoiy tartibni shubha ostiga qo‘yuvchi subversiv adabiyot deb talqin etadi [12].

Gotika tadqiqotlarida D. Panter gotik fantastika tarixini 1765-yildan zamonaviylikkacha qamrab olgan [13], F. Botting gotikani o‘zgaruvchan modus sifatida ko‘rgan [14], S.T. Joshi “g‘alati hikoya” (weird tale) poetikasini [15], V.E. Vatsuro esa gotik romanning rus adabiyotidagi retseptsiyasini o‘rgangan [16].

Falsafiy va kognitiv yo‘nalishda N. Kerroll dahshatni o‘quvchida uyg‘otiladigan hissiy reaksiya orqali belgilovchi “art-horror” nazariyasini yaratgan [17]. Yu. Takker dahshatni inson tafakkuri chegarasidagi dunyo haqidagi tafakkur shakli sifatida ko‘radi [18], M. Fisher “weird” va “eerie” tushunchalarini Freyd “unheimlich”idan farqlaydi [19], M. Klasen esa dahshat fiksiyasini tahdidni xavfsiz sharoitda mashq qilish mexanizmi sifatida izohlaydi [20].

Shunday qilib, jahon adabiyotshunosligida dahshatning turli jihatlari chuqur o‘rganilgan. Biroq bu yondashuvlar ko‘pincha alohida-alohida qo‘llanadi. Ularni yagona tipologik modelga birlashtirish va o‘zbek adabiyotshunosligida janr terminologiyasini ishlab chiqish masalasi hanuz yetarlicha yoritilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot materiali sifatida H. Uolpolning “Otranto qasri” (1764), M. Shellining “Frankenshteyn” (1818), N.V.Gogolning “Viy” (1835), B. Stokerning “Drakula” (1897) asarlari, E.A. Po va G.F. Lavkraft hikoyalari hamda S. Kingning “Danse Macabre” nazariy asari olindi [6].

Tadqiqot induktiv yo‘nalishda olib borildi: aniq badiiy matnlar va nazariy konsepsiyalar tahlilidan janrning umumiy tipologik modeliga qarab borildi. Birlamchi manbalar sifatida badiiy matnlar, ikkilamchi manbalar sifatida esa dahshat nazariyasiga oid monografiya va maqolalar xizmat qildi.

Metodologik asosni qiyosiy-tipologik va tarixiy-poetik metodlar tashkil etadi. Ular Ts.Todorovning fantastik janr nazariyasi [10], E.Yench va Z.Freydning “unheimlich” konsepsiyasi [7; 8], Yu.Kristevaning abjeksiya nazariyasi [9], N. Kerrollning “art-horror” nazariyasi [17], M.Klasenning evolyutsion yondashuvi [20] hamda M.M.Baxtinning xronotop nazariyasi [11] bilan uyg‘unlashtirildi.

Tadqiqot dizayni uch bosqichdan iborat:

nazariy konsepsiyalarni tanlash va tizimlashtirish;

ular asosida janrning invariant belgilarini ajratish va tipologik model tuzish;

modelni N.V. Gogolning “Viy” qissasi misolida sinash (keys-stadi).

Bir nechta mustaqil nazariy yondashuvning bir-birini tasdiqlashi xulosalarning ishonchliligini (reliability), modelning aniq badiiy matnda tasdiqlanishi esa uning asosliligini (validity) ta’minlaydi.

Tahlil va natijalar. Dahshat janrining tipologik belgilari.

Janrning asosiy belgisi – affektiv maqsadlilik. N. Kerroll ta’kidlaganidek, dahshat janri, komediya yoki suspens kabi, o‘quvchida uyg‘otishni ko‘zlagan hissiy reaksiya orqali belgilanadi [17]. Bu g‘oyaning ildizi E.A. Poning “ta’sir birligi” tamoyiliga borib taqaladi [5]. Tahlil natijasida aniqlangan sakkiz belgi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Dahshat janrining tipologik belgilari

№	Tipologik belgi	Mazmuni	Badiiy misol
1	Affektiv maqsadlilik	Qo‘rquv va jirkanish uyg‘otishga yo‘nalganlik	Po hikoyalari
2	Tahdid figurasi	Hayot yoki ong uchun xavfli mavjudot (monstr)	Drakula
3	Kategorial buzilish	Tirik va o‘lik, inson va hayvon oralig‘idagi mavjudot	Frankenshteyn maxluqi
4	Maxsus xronotop	Yopiq, o‘tmish bilan to‘yingan makon	Qasr; “Viy”dagi cherkov
5	Epistemik noaniqlik	Tabiiy va g‘ayritabiiy izoh orasidagi ikkilanish	Redkliff romanlari
6	“Unheimlich” effekti	Tanish narsaning begonalashuvi	Qo‘shaloq, jonli qo‘g‘irchoq
7	Tana va abjeksiya	Tana chegaralarining buzilishi, murda	Maxluqning yaratilishi
8	Suspens strategiyasi	Tahdidni kechiktirish, “hujjatli” shakl	“Drakula” kundaliklari

Manba: muallif ishlanmasi.

Kerroll fikricha, monstr bir vaqtning o‘zida xavfli va nopok bo‘ladi; nopoklik mavjudotning madaniy kategoriyalar oralig‘ida turishi, ziddiyatli yoki shaklsiz bo‘lishi bilan yuzaga keladi [17]. Baxtin tavsiflagan gotik qasr vazifasini [11] “Viy” qissasida tunda yopilgan cherkov bajaradi.

Ushbu model N.V. Gogolning “Viy” qissasi misolida yaxshi tasdiqlanadi. Qissada monstr (Viy, jodugar-pannochka) tirik va o‘lik, inson va noinson chegarasida turadi. Voqealar uch kecha davomida yopiq cherkovda kechadi. Xoma Brutning qo‘rquvi bosqichma-bosqich kuchaytiriladi, tahdidning to‘liq namoyon bo‘lishi esa oxirgi kechagacha kechiktiriladi. Shu tariqa matnda kategorial buzilish, maxsus xronotop va suspens strategiyasi yagona affektiv maqsadga bo‘ysundirilgan. Qissaning folklor asosiga tayanishi dahshat poetikasining milliy mifologiya bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Dahshat janrining o‘rganilish bosqichlari.

Nazariy manbalar tahlili janr o‘rganilishining oltita bosqichini ajratish imkonini berdi (2-jadval).

2-jadval.

Dahshat janrining jahon adabiyotshunosligida o‘rganilish bosqichlari

№	Bosqich	Asosiy ishlar davri	Asosiy vakillari	Asosiy g‘oya
1	Estetik-ma’rifiy	1757–1826	E. Byork, A. Redkliff [2; 3]	Dahshat estetik kategoriya sifatida; terror va horror farqi

№	Bosqich	Asosiy ishlar davri	Asosiy vakillari	Asosiy g‘oya
2	Yozuvchi-nazariyotchilar	1846–1981	E.A. Po, G.F. Lavkraft, S. King [5; 1; 6]	Janr poetikasi ijodiy tajriba asosida
3	Psixoanalitik	1906–1980	E. Yench, Z. Freyd, Yu. Kristeva [7–9]	Dahshat va ongsiz psixik jarayonlar
4	Strukturalistik va tarixiy-poetik	1970–1981	M.M. Baxtin, Ts. Todorov, R. Jekson [10–12]	Xronotopik va fantastik tuzilma
5	Gotika tadqiqotlari	1980–2002	D. Panter, F. Botting, S.T. Joshi, V.E. Vatsuro [13–16]	Gotika tarixi, modus sifatida gotika, weird tale
6	Falsafiy va kognitiv	1990-yillardan hozirgacha	N. Kerroll, Yu. Takker, M. Fisher, M. Klasen [17–20]	Art-horror, tafakkur chegarasi, weird/eerie, evolyutsion mashq

Manba: muallif ishlanmasi.

Birinchi bosqichda dahshat estetik kategoriya sifatida asoslandi. Ikkinchi bosqichda yozuvchilar janr poetikasini o‘z ijodiy tajribasi asosida sharhladi. Uchinchi bosqichda dahshat ongsiz psixik jarayonlar bilan bog‘landi. To‘rtinchi bosqichda u xronotopik va fantastik tuzilma sifatida tahlil qilindi. Beshinchi bosqich gotikani tarixiy jarayon va modus sifatida o‘rgandi. Oltinchi bosqichda esa dahshat falsafiy va evolyutsion nuqtayi nazardan izohlana boshladi.

Natijalar muhokamasi.

Janr yoki modus? Kerroll va Aldana Reyes dahshatni affekt orqali belgilanadigan janr deb hisoblaydi [17; 4], Panter va Botting esa gotikani turli janrlarga kirib boruvchi modus sifatida talqin qiladi [13; 14]. Bizningcha, bu qarashlar bir-birini inkor etmaydi: dahshat affektiv dominanta sifatida modus, barqaror tipologik belgilar majmuiga ega matnlarda esa janr sifatida namoyon bo‘ladi.

Dahshat paradoksi, ya’ni insonning qo‘rquvdan zavq olishi masalasiga turli javoblar berilgan. Aristotel tragediyani qo‘rquv va shafqat orqali katarsisga olib keluvchi vosita deb bilgan. Kerroll zavq manbaini monstr uyg‘otadigan qiziqish va bilishga intilishda ko‘radi [17], Klasen esa uni evolyutsion moslashuv bilan izohlaydi [20]. Bu qarashlar paradoksning turli qirralarini yoritib, bir-birini to‘ldiradi.

Yondashuvlarning cheklovlari. Freyd konsepsiyasi matnning janriy tuzilishini e’tibordan chetda qoldiradi. Todorov modeli esa fantastikani ikkilanish lahzasi bilan cheklaydi [10]; natijada g‘ayritabiiy mavjudot boshidanoq aniq bo‘lgan “Drakula” kabi asarlar “mo‘jizaviy” janrga tushib qoladi. Shu bois bir nechta yondashuvni uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Dahshat janri affektiv maqsadliligi bilan belgilanadi va bu tamoyil Poning “ta’sir birligi”dan Kerrollning “art-horror” nazariyasigacha izchil rivojlangan.

Janrning tipologik modeli sakkiz belgidan iborat bo‘lib, u N.V. Gogolning “Viy” qissasi misolida tasdiqlandi.

Janrning o‘rganilishi bir-birini to‘ldiruvchi oltita bosqichni bosib o‘tgan.

Dahshatni modus va janr sifatida birgalikda talqin qilish “janr yoki modus” munozarasini murosaga keltiradi.

Takliflar. O‘zbek folklorida alvasti, ajina, jin, dev, yalmog‘iz kampir kabi demonologik obrazlar keng uchraydi va ular kategorial buzilish belgisiga to‘liq javob beradi. O‘zbek adabiyotshunosligi uchun quyidagi terminologik muqobillarni taklif etamiz: terror – “vahima”, horror – “dahshat”, gross-out – “jirkanish”, das Unheimliche – “g‘ayritanish”, abjection – “abjeksiya”. Bu taklif Redkliff va King darajalanishiga mos keladi.

ADABIYOTLAR

1. Lovecraft H.P. Supernatural Horror in Literature // The Recluse. – 1927. – No. 1.
2. Burke E. A Philosophical Enquiry into the Origin of Our Ideas of the Sublime and Beautiful. – London: R. and J. Dodsley, 1757. – Part II, Sect. I–II.
3. Radcliffe A. On the Supernatural in Poetry // The New Monthly Magazine and Literary Journal. – 1826. – Vol. 16. – P. 145–152.
4. Aldana Reyes X. (ed.) Horror: A Literary History. – London: The British Library, 2016.
5. Poe E.A. The Philosophy of Composition // Graham’s Magazine. – 1846. – Vol. 28, No. 4. – P. 163–167.
6. King S. Danse Macabre. – New York: Everest House, 1981.
7. Jentsch E. Zur Psychologie des Unheimlichen // Psychiatrisch-Neurologische Wochenschrift. – 1906. – Bd. 8, Nr. 22–23.
8. Freud S. Das Unheimliche // Imago. – 1919. – Bd. 5. – S. 297–324.
9. Kristeva J. Pouvoirs de l’horreur. Essai sur l’abjection. – Paris: Éditions du Seuil, 1980.
10. Todorov T. Introduction à la littérature fantastique. – Paris: Éditions du Seuil, 1970.
11. Bakhtin M.M. Formy vremeni i khronotopa v romane // Bakhtin M.M. Voprosy literatury i estetiki. – M.: Khudozhestvennaya literatura, 1975. – S. 234–407.
12. Jackson R. Fantasy: The Literature of Subversion. – London; New York: Methuen, 1981.
13. Punter D. The Literature of Terror: A History of Gothic Fictions from 1765 to the Present Day. – London: Longman, 1980.
14. Botting F. Gothic. – London; New York: Routledge, 1996.
15. Joshi S.T. The Weird Tale. – Austin: University of Texas Press, 1990.
16. Vatsuro V.E. Goticheskiy roman v Rossii. – M.: Novoye literaturnoye obozreniye, 2002.
17. Carroll N. The Philosophy of Horror, or Paradoxes of the Heart. – New York; London: Routledge, 1990.
18. Thacker E. In the Dust of This Planet. Horror of Philosophy. Vol. 1. – Winchester: Zero Books, 2011.
19. Fisher M. The Weird and the Eerie. – London: Repeater Books, 2016.
20. Clasen M. Why Horror Seduces. – New York: Oxford University Press, 2017.